

**IX-XII ASRLARDA ILM-FAN VA MADANIYATNING YUKSALISHI –  
DINIY-HUQUQIY ILM RIVOJI**

*Saydullayeva Aynurа Jiyenbay qizi  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti*

*Tarix 2-kurs talabasi  
saydullayevaaynura2@gmail.com*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada IX–XII asrlar oralig‘ida musulmon dunyosida yuz bergan ilm-fan va madaniyatning yuksalishi jarayonlari, ayniqsa diniy-huquqiy tafakkur rivoji tahlil qilinadi. Ushbu davrda Qur'on va hadis ilmlari, fiqh, kalom, tafsir kabi sohalarning chuqurlashgani, shuningdek, Abu Hanifa, Imom al-Shofe'iy, Imom al-G‘azzoliy, Imom Buxoriy kabi mutafakkirlarning hissasi yoritiladi. Maqolada ilmiy maktablar, madrasalar va ulamolar faoliyati asosida islomiy huquq tizimining shakllanishi va jamiyat hayotidagi o ‘rni ko ‘rib chiqiladi. Shuningdek, diniy bilimlarning falsafa, mantiq, adabiyot kabi dunyoviy fanlar bilan uyg ‘unlashuvi ham tahlil etiladi.

**Kalit so ‘zlar:** IX–XII asrlar, islom sivilizatsiyasi, diniy huquq, fiqh, tafsir, kalom, ulamolar, madaniy yuksalish, ilm-fan rivoji, madrasalar.

### **Аннотация**

В статье анализируются процессы подъема науки и культуры в мусульманском мире между IX и XII веками, в особенности развитие религиозной и правовой мысли. В этот период будет уделено особое внимание углублению таких областей, как науки о Коране и хадисах, фикхе, каламе и тафсире, а также вкладу таких мыслителей, как Абу Ханифа, имам аш-Шафии, имам аль-Газали и имам Бухари. В статье рассматривается формирование исламской правовой системы и ее роль в обществе на основе деятельности научных школ, медресе и ученых. Также анализируется интеграция религиозных знаний со светскими науками, такими как философия, логика и литература.

**Ключевые слова:** IX–XII вв., исламская цивилизация, религиозное право, фикх, тафсир, калам, ученые, культурный подъем, развитие науки, медресе.

### **Annotation**

This article analyzes the processes of the rise of science and culture in the Muslim world between the 9th and 12th centuries, especially the development of religious and legal thought. During this period, the deepening of such fields as the sciences of the Quran and Hadith, jurisprudence, kalam, and tafsir is highlighted, as well as the contribution of thinkers such as Abu Hanifa, Imam al-Shafi 'i, Imam al-Ghazali, and Imam Bukhari. The article examines the formation of the Islamic legal

system and its role in social life based on the activities of scientific schools, madrasahs, and scholars. The integration of religious knowledge with secular sciences such as philosophy, logic, and literature is also analyzed.

**Keywords:** 9th–12th centuries, Islamic civilization, religious law, jurisprudence, tafsir, kalam, scholars, cultural rise, development of science, madrasahs.

Sharqda mavjud bo‘lgan sivilizatsiyasi butun g‘arbda ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Keyinchalik g‘arbda shakllangan sivilizatsiya Sharq taraqqiyotiga o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazgan va shu asnosida sivilizatsiyalar millat, xalq va mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuvida ham ijobiy ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. G‘arb va Sharq sivilizatsiyalarining o‘zaro bir-biriga ta’siri, bir-birini boyitishi insoniyat taraqqiyotining muhim ma’naviy omilidir. Sharq sivilizatsiyasidagi o‘z mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik xususiyatiga ega bo‘lgan qadriyatlar jahon sivilizatsiyalar rivojlanishida barqarorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, IX-XV asr musulmon tarixiy-falsafiy merosi, Sharq, aniqrog‘i Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o‘rta asrlar va Uyg‘onish davri Yevropa falsafiy tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri hamda ahamiyatini ochib berish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashga samarali xizmat qilishi shubhasizdir. Jahondagi ilm-fani rivojida Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobi, Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va ko‘plab bobokalonlarimizning durdona asarlari milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz bo‘lib, ularning beqiyos ilmiy-ma’rifiy kashfiyotlarisiz fan bir muncha achinarli holga tushib qolgan bo‘lar edi. Bu fikrni tarix ham isbotlaydi.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo‘lgan o‘ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta’sir etdi. Ma’lumki, Movarounnahr istilo qilinib, xalifalikka qo‘sib olingach, zabit etilgan o‘zga mamlakatlar qatorida, bu o‘lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili edi. Shuningdek, Arab xalifaligida davlat tili va fan tili ham edi. Shu boisdan ko‘p jihatdan arab tilining mohiyati oshib, uni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilish kuchli bo‘ldi. Islomni qabul qilgan aholining ko‘pchilikka arab tili bilan muloqoti, garchi faqat ibodat vaqtlarida Qur’oni Karimning qisqa suralarini tilovat qilishdan iborat bo‘lsa-da, ammo mahalliy mulkdorlar arab tilini xalifalik ma’murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o‘z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning asosi deb hisoblardilar. Uni o‘zlashtirishga astoydil kirishadilar. Arab tiliga bo‘lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko‘p vaqt o‘tmay Movarounnahrda ham hatto o‘z ona tilidan ko‘ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o‘zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo‘ladi. Davlatni boshqarishda Abbosiylar ma’muriyati ayniqsa, ko‘plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo‘lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi.

Shu boisdan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda mahalliy tillarda yozilgan asarlar yo‘q qilinib, yerli bilimdonlar quvg‘in ostiga olib turilgan bir paytda bu mamlakatlarning ko‘pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari: Damashq, Qohira, Bag‘dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo‘ladilar.<sup>1</sup> Ammo Samoniylar davriga kelib bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi. Somoniylar ilm-fan, adabiyot, san’at, umuman madaniyatning taraqiyotiga katta ahamiyat bergen. Ular saroyga olim, shoir, bastakor, muhandis kabilarni jalb etganlar. Bu davrda aholining tili sug‘di, tojik va turkiy bo‘lsa-da, arab tili ham keng tarqalgan edi. Arab tili ilm-fan, adabiyot, din, fiqh tili va jahondagi eng katta davlat bo‘lgan xalifalikda xalqaro aloqa tili ham edi. Shuning uchun arab tilini bilmay ijod etish yoki biror vazifaga tayinlanish mumkin bo‘lmagan. IX—X asrlarda Buxoroda fors tili shunchalik rivoj etadiki, bu til haligacha adabiy fors tili sifatida qo‘llanilmoqda.<sup>2</sup>

Buyuk allomalarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobi, Al-Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamashshariy ilmiy merosi haqida Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkirlari IX—XI asrlarda yashab jahonda turli ilm-fan sohalarida yangiliklar kiritib, Sharq renesanssiga asos soldilar. Muhammad Muso al-Xorazmiy - matematika ilmi maktabining asochisi. Beruniy - tarix, astranomiya, Ibn Sino - tibbiyot, falsafa, fanlari asoschisi bo‘lsalar, Abu Nasr Forobi - faylasuf, astronom qomusiy olim va ijtimoiy - siyosiy fikrlar rivojini belgilab berdi. Bu olimlarning barchasi bir sohada emas, balki bir necha sohalarda kitob yozib, ensiklopediya olimlaridir. Ular inson kamoloti uchun "Hayotbaxsh ko‘p fikrlilik"ni targ‘ib qildilar. Ularning barchasi axloq-odob, inson tarbiyasi masalasiga ham katta hissa qo‘shganlar. Jahondagi bir qancha loyhalar aynan IX-XII asrlardagi allomalar haqida Kaliforniya va Yevropa olimlari fikr yuritib, ushbu olimlarning ism shariflari arabcha bo‘lgani uchun ular arab olimlaridir, degan fikrni ilgari surdilar. Ushbu olimlarni ilmiy kashfiyotlaridan bahramand bo‘lishmoqda ammo ularning tug‘ilgan joyini bilishmaydi. Chunki bu olimlarning barchasi o‘z faoliyatini Bag‘doddagi Ma’mun Akademiyasida olib borganlariga e’tibor bergenlar.

Abu Nasr Forobi (873-950) ilmnинг turli sohalariga oid katta ilmiy meros qoldirdi. M.Xayrullayev o‘zining “Forobi va uning falsafiy asarlari” monografiyasida Forobiyning 119 ta asari ro‘yxatini keltiradi. O‘z davrining zukko, ilmli mutafakkiri Forobiy 70 dan ortiq tilni mukammal bilgan va ko‘pgina tillardagi eng muhim asarlarni asliyatda mutolaa qilgan.<sup>3</sup> Agar Aristotel Sharqda “Muallimi avval” degan unvon olgan bo‘lsa, Forobiy Aristotel asarlarini targ‘ib qilgani va uning qarashlarini yanada rivojlantirgani, Aristotel kabi universal ilmga ega bo‘lgani uchun “Muallimi soniy”

<sup>1</sup> <https://ziyonet.uz/ru-> U.S. To ‘pchiyev, B.N. Mirzayev.

<sup>2</sup> Fozila Sulaymonova-Sharq va G ‘arb Toshkent 1997

<sup>3</sup> Ibrohimov A. Bizkim, o ‘zbeklar. “Sharq”, T:2011. B.142.

(“Ikkinch muallim”)<sup>4</sup> degan nom olgan. Forobiy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan, “Fozil shahar aholilarining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida risola”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari” kabi asarlarni yozgan. Forobiy fazilatli shaharda ilm, falsafa, axloq, ma’rifatning ahamiyati birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i kerak, shundagina jamiyat yetuklikka erishadi, deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonning va jamiyatning g‘alabaga erishuvi, yaxshilikni qo‘lga kiritish, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi inson va jamoaning o‘z qo‘lidadir,<sup>5</sup> shuningdek, bilimma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim, — degan so‘zлari zamirida oilada, ta’lim muassasalarida farzandlarga nafaqat bilim, balki tarbiya ham zarurligi ilgari surilgan. Zero, dono xalqimiz “Bola – odobi bilan go‘zal”, deb bejiz aytmagan.

Muso al-Xorazmiy qadimgi Xorazm diyorida tug‘ilib voyaga yetgan. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o‘z ona yurti Xorazm va Mavarounnahr shaharlarida oladi. So‘ngra u xalifa Ma’mun zamonida (813-833) «Bayt ul-hikma»da mudir sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birlgilikda yer aylanasining uzunligi – radiusini hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg‘ul bo‘ldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo‘shdi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar: «Aljabr va al-muqobala» hisobi haqida qisqacha kitob; «Hind hisobi haqida», ya’ni arifmetik asar; «Kitob sural ul-arz», «Yer surati» haqida geografiyaga oid kitob; «Zij»«Usturlob bilan ishslash haqida kitob» kabi astronomiyaga oid asarlar; shuningdek «Kitob attarix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola» nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida ayniqsa «Aljabr va al-muqobala» kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo‘lib “algebra” faniga asos soldi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos solib, tarixda o‘zidan o‘chmas iz qoldirdi.

«Bayt ul-hikma» da faoliyat ko ‘rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg‘oniyidir. U Farg‘onada tavallud topgani uchun Sharqda Al-Farg‘oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U avval Matu, so‘ngra Bag‘dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug‘ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash yangicha «zij», ya’ni astronomik jadval yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832-833-yillarda Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridianining bir darajasini uzunligini o‘lchashda qatnashdi. 861-yilda uning

<sup>4</sup> Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. “Abdulla Qodiriy” nashriyoti, T.:1993 B.10.

<sup>5</sup> Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.

rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini o‘lchagich «Miqyos an-Nil» inshooti va uning darajasi qayta tiklandi. Ahmad Farg‘oniy tarixda birinchilardan bo‘lib Yerning dumaloqligini isbotlab bergen olimdir.

Tabiiy fanlarning paydo bo‘lishining boshlanishini aniqlash, shu jumladan kimyo, ilmiy chuqur va keng o‘rganish kabi bebafo va qadimiy bilimlar xazinasi merosi mashhur “Avesto”, ilmiy akademiyalarning rolini o‘rganish, o‘rta asr islam Sharqi kabi mamlakatlarida faoliyat ko‘rsatuvchi va buyuk mutafakkirlarning ulkan ijodiy merosi Hayyom, Muhammad Zakariya va Roziy, Abu Ali ibn Sino, Abumansur Muvaffak, Beruniy va boshqalardir. Bu mutafakkirlarning tarixiy roli va hissasini qadrlamasdan va bilmasdan umuminsoniy ilmiy merosni tasavvur etib bo‘lmaydi, masalan zamonaviy kimyo fani va boshqa tegishli sohalar tabiiy fanlar va ishlab chiqarish kabiladir. Qadimgi “Avesto” asarini o‘rganish asosida ilk bor tahlil qilinganda o‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy akademiyalar faoliyati Yaqin va Markaziy Osiyoning keng hududida Sharqiy islam elementlarining paydo bo‘lishi va keyingi rivojlanishining boshlanishi aniqlangan tabiiy fanlar, shu jumladan kimyo fanlari ana shunday buyuklarning asarlarini atroflicha tahlil qilish natijasida Jobir ibn Hayyon kabi o‘rta asr islam Sharqi mutafakkirlari Muhammad Zakariyo va Roziy, ularning belgilovchi roli eksperimental kimyoning paydo bo‘lishi; ustuvorligi belgilangan bir qator moddalarni ajratib olish va sintez qilishda ularning tadqiqotining ahamiyati organik va noorganik tabiat, shuningdek, yadrokimyoning paydo bo‘lishida; Muhammad Zakariyo va Roziyning nodir asarlari atroflicha tahlil qilingan, kimyoga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda aytilgancha izohlash amalga oshiriladi zamonaviy nazariy tushunchalar nuqtai nazaridagi materiallardir. Noyob keng qamrovli, tahliliy o‘rganish asosida O‘rta asr Sharqining buyuk mutafakkirlarining asarlari birinchi marta ularning kimyo fanining rivojlanishiga qo‘shtan bebafo va muhim hissasi ko‘rsatilgan; farmakologiya va farmatsevtika kimyosi ishonchliligi aniqlashda Beruniyning ilmiy tadqiqot olib borishdagi metodologiyasi, shuningdek, to‘g‘riligi kimyoviy tajribalarni amalga oshirishda Avitsenna tomonidan ko‘rsatilgan yo‘l alkemyoviy yo‘nalish vakillaridan farq qilgan.

Ispaniyada salkam VIII asr davom etgan arablar hukmronligi, yarim orolda Sharq madaniyati, ilm-fan, falsafa, badiiy adabiyotning rivojlanishi, xalifalikni tashkil etgan boshqa xalqlar, ayniqsa Movarounahrda Eron madaniyatining arablar tomonidan o‘zlashtirilishi, Ispaniyada esa yanada takomillashtirilishi Yevropa xalqlari, ayniqsa Ispaniya bilan chegaradosh mamlakatlar uchun izsiz kechmadi. Aksincha, G‘arb mamlakatlari xalqlari madaniyati va rivojiga turki bo‘ldi. Ko‘p olimlar VIII-XIII asrlar oralig‘ida Afrika qirg‘oqlari va Pirenuya yarim orolidan to Xitoy chegaralarigacha bo‘lgan mintaqada yaratilgan texnika, tabiatshunoslik, tibbiyot, astronomiya, matematika, falsafa fanlari yutuqlarini Yevropa o‘zlashtirishi uchun besh

asrdan ortiq vaqt kerak bo'ldi, deb tan oladilar. Bu haqda italyan adabiyotining bilimdoni I.N. Golenishchev-Kutuzov fransuz Olimi G.Kuardi ("arab falsafasi o'rta asr yevropasida", Parij, 1847) asariga suyangan holda shunday deydi: "Bag'dodda Abbosiylar, Kardovada Ummaviyalar va Almoviyalar saroyida VII-XII asrlarda O'rta Osiyoda musulmon matematik va mutafakkirlari bilan bog'liq bo'lgan ajoyib olimlar mакtablari faoliyat yururtgan. Ular ilm-fanning yuksak rivojini taminladilar. Shunday qilib, Samarqanddan Toshkentgacha yaxlit bir madaniy taraqqiyot yo'li cho 'zildi. Yevropa to XII asrgacha Yunon-arab fanining chekka viloyati edi, xolos".

Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat "Grek-Arab fanigina emas, balki Movarounnahr olim-faylasuflari Muhammad Muso Xorazmiyi, Forobi, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab olimlarning asarlaridan ham G'arbiy Yevropani bahramand qildi. Sharq olimlari merosini tarjima etish borasida Yevropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar mehnat qildilar.

O'rta asrlarda mamlakatimiz hududida ilm-fanning turli sohalari jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Bu davrda boshqa fan sohalari qatorida islom ilmlarida ham ko'plab olimlar ijod qilib, boy ilmiy meros qoldirdilar. Mazkur jarayonda samarali mehnat qilib, yuksak natijalarga erishgan allomalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ana shunday olimlardan biri Ali ibn Abi Bakr ibn Abduljalil Farg'oniy Rishdoniy Marg'inoniy bo'lib, u zot ko'proq Burhonuddin Marg'inoniy nomi bilan mashhur.

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta 'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqsa Imom al-Buxoriy, uning zamondoshi va shogirdi Iso Termizi - (Abu Iso Muhammad at-Termizi - 824-894-u. u.) larning hissasi nihoyatda buyukdir. Birgina Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi. Uning «Jomi as-Sahih» nomli shoh asari musulmon Sharqida qariyb o'n ikki asr davomida islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keying asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadislar va ularga berilgan ko'pdan-ko'p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga qoidalargina ifodalanimay, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblanilgan mehr-muhabbat, hurmat-u izzat hamda o'zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida ma'lumotlar berilgan. Bu davrda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmdan xalifalikning markaziy shaharlariga borib, fanning turli sohalarida ijod qilgan olimlardan tashqari madaniyatning deyarli barcha sohalari bo'yicha ham yetuk ustod-u shogirdlarning soni Bag'dod shahrida oz emas edi. Abu Mansur al-Moturidiy. Hadis va fiqh olamining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Moturidiy taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tug'ildi. Al- Moturidiy islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan bo'lsa-da, uning eng muhim «Kitob at-Tavhid» («Allohning birligi») va «Ta'vilot ahl as-sunna» nomli asarlarigina saqlanib qolgan.

Bu asarlar ilohiyot ta'limotining eng qadimiy asarlaridan bo'lib, alohida ilmiy va nazariy ahamiyatga egadir Moturidiy asos solgan ta'limot kishilarni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabr-u qanoat-ga, sharm-hayoga, oliyhimmatlilikka, vatanni sevishga chorlaydi. Al-Moturidiy 944 yilda Samarqandda vafot etgan va shahar yaqinidagi Chokardiza qabristonida dafn etilgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13 kuni (810 yil 20 iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmli odamlaridan bo'lib, o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususda ham uning aniqligiga hech shubha yo'q. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehnli va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozni Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825 yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi. Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islam dunyosida uning ijodidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda foydalananib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'chishlari bu vaqtida Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob al-favoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jome' al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af 'ol alibod“, („Allah bandalari ishlarining tabiat“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayr-ehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor.

Buxoriyning boshqa asarlari orasida „Tafsir al-Qur 'on“ („Qur 'on tafsiri“) kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha

madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurti bag‘riga qaytdi.

### Xulosa

Biz ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida yuz bergan chuqur ijobjiy o‘zgarishlar, ilm-fan, madaniyatning rivojlanishini o‘rganar ekanmiz, ularning yaratilishida o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shtigan buyuk allomalar, olim-u fuzalolarining jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga qo‘shtigan ulushlarini alohida ta’kidlaymiz. Jahon madaniyati rivojida ularning o‘rinlarini aniqlab olishimiz va ko‘rsatishimiz vaqt keldi. Ularning hammasi mustaqil O‘zbekistonda yosh avlodni milliy g‘oya, milliy mafkura, Vatanga muhabbat, sadoqat, g‘urur ruhida tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Ko‘rinadiki, IX-XII asarlarda Markaziy Osiyoda madaniy taraqqiyotning barcha sohalarida yuqori darajada rivojlanish yuz bergan. Bu jarayonni esa «uyg‘onish» renessans deyishga asos bor. Uning muhim xislati insonparvarlik bo‘lgan va markazida doimo inson, insoniy aql, his tuyg‘u, inson ma’naviy boyligini egallash, uni yuksaltirish masalalari turgan. Bundan tashqari, uyg‘onish madaniyati, birinchi navbatda feodal munosabatlarning tez rivojlanishi, yerli mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. U yangi davr ehtiyojlari asosida shakllandi. Yana uyg‘onish madaniyati shahar madaniyatining yuksalishi, shaharning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy rolining kuchayib borishi bilan bog‘liqligini ham e’tibordan chetga qoldirmasligimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ziyonet.uz/rus-> U.S. To ‘pchiyev, B.N. Mirzayev.
2. Fozila Sulaymonova-Sharq va G ‘arb Toshkent 1997
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. “Abdulla Qodiriy”nashriyoti,T.:1993 B.10
4. Ibrohimov A. Bizkim, o ‘zbeklar. “Sharq”, T:2011. B.142.